

RESEARCH ARTICLE

Linguistic And Cultural Challenges In Translating Japanese Onomatopoeia

Muslima Temirova

Senior Lecturer Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 93-96

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

The article examines Japanese onomatopoeia and the main semantic challenges in translating them into Uzbek. It outlines the conceptual features of giseigo, giongo, gitaigo and gijougo. Strategies of equivalence and compensation are discussed through practical examples.

KEY WORDS

Onomatopoeia, mimetic expression, linguoculture, gitaigo, gijougo, equivalence, compensation.

INTRODUCTION

Tilshunoslikda onomatopeya hodisasi, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida fonosemantika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik bilan kesishgan nuqtalarda faol tadqiq etila boshladi. Avval "tovushga taqlid" doirasida izohlangan bu qatlam keyingi yillarda ma'lum til jamoasining dunyo manzarasini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilinmoqda [3, 214]. Yapon tili onomatopeyalarining son, shakl va funksional imkoniyatlari jihatidan dunyo tillari ichida alohida o'rin egallashi ham bu mavzuga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirdi [1, 17].

O'zbek tilshunosligida onomatopeyalar leksikologiya va stilistika nuqtayi nazaridan qator tadqiqotlarda tilga olingan bo'lsa-da, aynan yaponcha mimetik birliklarning o'zbek tiliga tarjimasidagi lingvomadaniy muammolar hali to'la o'rganilgan deb bo'lmaydi. Badiiy tarjima, subtitrlar va dublyaj, darslik va o'quv qo'llanmalari tilida bu birliklarning noto'g'ri yoki soddalashtirilgan berilishi natijasida matnning emotsional va estetik bo'yoqlari sezilarli darajada yo'qolib qolmoqda. Shuning uchun mazkur muammoni tarjimashunoslikning

nazariy va amaliy jihatlari bilan bog'liq holda kompleks o'rganish dolzarb ekanligi shubhasiz.

Mazkur maqolaning maqsadi yapon onomatopeyalarini lingvokulturologik birlik sifatida tavsiflash, ularning giseigo, giongo, gitaigo va gijougo guruhlari bo'yicha konseptual xususiyatlarini aniqlash hamda o'zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan leksik-frazeologik muammolarni tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda yapon tili izohli lug'atlari, maxsus onomatopeya lug'atlari, zamonaviy badiiy asarlar, manga, kino va animatsion filmlar ssenariylari hamda yaponcha-o'zbekcha lug'atlar materiallari tahlilga tortildi [1; 2; 4; 6].

Yapon tilshunosligida onomatopeyalar odatda besh guruhga bo'linadi: giseigo (tirik mavjudotlar tovushiga taqlid), giongo (jonli va jonsiz narsalar tovushi), gitaigo (tovushsiz holat va harakatning tasviri), gijougo (hissiy holat onomatopeyalarini) va ayrim tadqiqotchilar ajratadigan giyougo (harakatning qanday bajarilishini ifodalovchi birliklar) [1, 25]. Mazkur tasnif nafaqat fonetik shakl, balki kognitiv yo'nalishni ham belgilaydi: giseigo va giongo ko'proq "tashqi dunyo" tovushlariga tayanar ekan, gitaigo va gijougo "ichki dunyo", ya'ni sub'ektiv idrokni

kodlaydi.

Masalan, ざあざあ yomg'ir tovushini kuchli, keskin va uzluksiz yog'ayotgan holda tasvirlaydi, しとしと esa past intensivlikdagi, ammo uzoq davom etuvchi sokin yomg'ir manzarasini ifodalaydi. Har ikki birlik ham "yomg'ir" konseptiga tegishli bo'lsa-da, yapon madaniyatidagi tabiat va kayfiyat o'rtasidagi nozik bog'liqlik tufayli ikki xil estetik obrazni shakllantiradi. O'zbek tilida bu farqlar ko'pincha "shovullab yog'ayotgan yomg'ir" va "mayin yomg'ir" kabi so'z birikmalari orqali beriladi, biroq bu yerda onomatopeyaning fonetik, ritmik va emotsional komponenti matndan chiqib ketadi.

Gitaigo va gijougo guruhleri yapon onomatopeyasining eng o'ziga xos qatlamini tashkil etadi. ふわふわ, すらすら, いきいき, もやもや, いらいら, ときどき kabi birliklar tovushni emas, balki holat, kayfiyat, dinamikani verbal shaklga keltiradi. Masalan, ふわふわする deganda nafaqat "yumshoqlik" va "yengillik", balki "an'anaviy yapon estetikasiga xos bo'lgan havodorlik, nafislik" tasavvuri ham ko'zda tutiladi. もやもやする esa "xiralashgan, aniqlashmagan, lekin tinchlik bermayotgan ruhiy holat"ni bildiradi. O'zbek tilida ularni "ko'ngli g'ash bo'ldi", "o'ylari chigallashdi", "ichida bir g'alati bezovtalik bor" kabi analitik shakllar orqali berishga to'g'ri keladi.

Tarjima jarayonida birinchi navbatda semantik ko'pma'nolilik muammosi yuzaga chiqadi. Bir onomatopeya ko'pincha bir nechta konseptual maydonga xizmat qilishi mumkin. さらさら birikmasi shamolning mayin esishi, sochning silliq taralishi, qog'ozning tez varaqlanishi, suvning mayin oqishi kabi holatlarda ishlatiladi. Ushbu misollarning barchasida "yengillik, sillikli, to'sqinlik harakat" semasi umumiy bo'lsa-da, konkret kontekstga qarab u boshqa so'zlar bilan kombinatsiyada turlicha obraz hosil qiladi. O'zbek tilida esa har bir kontekst uchun alohida ekvivalent topishga to'g'ri keladi: "mayin shamol esmoqda", "sochi silliq taraladi", "suv yengil oqmoqda" va h.k. Shuning uchun ham tarjimon bir onomatopeyaning "lug'aviy" ma'nosini emas, balki uning kontekstual kombinatsiyalari va kognitiv modelini hisobga olishi lozim [5, 98].

Ikkinchi yirik muammo – uslubiy bo'yoqning yo'qolishi. Yapon badiiy nasrida, ayniqsa zamonaviy prozada mimetik birliklar muallif uslubini belgilovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Haruki Murakami yoki Yosikava Eiji singari

yozuvchilarning matnlarida qisqa, ritmik onomatopeyalar muhitni jonlantiradi, personaj psixologiyasini "ko'rsatib" beradi. Masalan, 彼の心臓はときどきと高鳴っていた jumlasida so'zma-so'z "yuragi do'kiddo'k qilib ura boshladi" tarzida berilishi mumkin. Ammo tarjimali matnda "katta hayajon bilan", "yuragi hapriqib" kabi komponentlarni qo'shish orqali emotsional intensivlikni kompensatsiya qilish talab etiladi. Shunda ham yaponcha iboraning fonetik ritmi, qisqa bo'g'inli takroriy tuzilishi to'liq tiklana olmaydi.

Uchinchi turdagi qiyinchilik lingvokulturologik xususiyatlar bilan bog'liq. Yapon madaniyatida sokinlik, jimjitlik, tabiiy tovushlarning sezilar-sezilmas idroki alohida estetik kategoriya sifatida qaraladi (静寂, 侘び寂び va boshqalar). しんと, ぼつんと, ひっそり, しとしと kabi birliklar aynan ana shu estetik sezgirlikni kodlaydi. Masalan, しんとした夜 ifodasida nafaqat "mutlaq jim tun", balki "inson ichki kechinmalarini eshitish imkonini beradigan sokinlik" obrazini ham ko'ramiz. O'zbek tilida bu ifoda "juda jimjit tun", "sokin tun" kabi tarjima qilinishi mumkin, biroq yaponcha konseptosferadagi estetik yuklama ma'lum darajada qisqaradi.

Yapon onomatopeyalarining frazeologik jihati ham tarjima uchun alohida ahamiyatga ega. Ko'plab birliklar ma'lum fe'llar bilan barqaror bog'lanadi: きらきら光る, ぐんぐん伸びる, じろじろ見る, すらすら話す kabi. Bunday kollokatsiyalar ko'pincha frazeologik birlashma darajasiga yaqinlashadi. Masalan, すらすら話す jumlasidagi すらすら oddiy "tez" yoki "bemalol" semalarini emas, balki "to'xtamasdan, qiynalmay, to'siqsiz, ravon" nutq jarayonini bildiradi. O'zbek tilida bu ko'pincha "bemalol gapira boshladi", "ravon va ishonch bilan gapirdi" tarzida kengaytirilgan sintaktik struktura orqali ifodalanadi. Shuning uchun tarjimon nafaqat lug'aviy moslikni, balki kollokativ normalarni ham hisobga olishi zarur.

Tarjima strategiyalari nuqtayi nazaridan yapon onomatopeyalarini o'zbek tiliga o'tkazishda bir nechta yondashuv kuzatiladi. Eng oddiy usul – to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish bo'lib, bu ko'proq giseigo va giongo uchun qo'llaniladi: ワンワン – "vov-vov", ニャーニャー – "miyov-miyov", ざあざあ – "shovullab", ゴロゴロ雷が鳴る – "gumburlab momaqaldiraq bo'lyapti" kabi. Biroq gitaigo va gijougo guruhida to'liq fonetik-semantik ekvivalent topish deyarli

imkonsiz bo'lib, bu yerda deskriptiv tarjima va funksional almashtirishdan foydalaniladi [6, 145].

Deskriptiv tarjima usulida onomatopeya ma'nosi sintaktik kengaytma orqali ochib beriladi: きらきら星が光っている – “yulduzlar mayin yaltirab turibdi”, もやもやした気持ち – “ichida noaniq, xiralashgan bezovtalik bor”, いらいらしている – “asablari tarang, jahli tez chiqadigan holatda turibdi” va hokazo. Bu holatda fonetik qisqalik va ritm yo'qolgan bo'lsa-da, mazmuniy komponentlar nisbatan to'liq saqlanadi.

Funksional almashtirishda esa yaponcha onomatopeya o'rniga o'zbek tilidagi boshqa stilistik vosita – kuchaytirgichlar, takroriy fe'llar, xalqona iboralar qo'llanadi. Masalan, どきどきしながら待った iborasi “cho'g' ustida o'tirgandek bezovtalik bilan kutdi” tarzida berilishi mumkin. Bu yerda yaponcha mimetik birlik o'zbek frazeologizmi bilan almashtirilgan bo'lsa-da, o'quvchi ongida shunga yaqin emotsional effekt hosil bo'ladi.

Yana bir muhim strategiya – kompensatsiya. Ba'zan tarjimada onomatopeya bevosita ekvivalentga ega bo'lmagani uchun u tushirib qolinadi, biroq matnning boshqa joyida qo'shimcha epitet, ta'rif yoki boshqa stilistik vosita yordamida yo'qotilgan emotsional-estetik ta'sir qisman tiklanadi. Masalan, dialogdagi きゅんと胸が締め付けられる kabi ibora asosiy semantik yukini “ko'ngli g'alati bo'lib ketdi”, “yuragi uvishib ketdi” kabi iboralarga ko'chirib, onomatopeyani o'zi keltirilmasligi mumkin. Bunday yondashuv Nidaning “dinamik ekvivalentlik” konsepsiyasiga mos keladi, ya'ni formaning emas, balki o'quvchi ongida yuzaga keladigan ta'sirning saqlanishiga e'tibor qaratiladi [5, 112].

Audiovizual matnlar, xususan, anime va kinofilmlarni subtitrlar va dublyaj qilishda onomatopeyalarning yana bir qatlami – grafika va ovoz effektlari bilan bog'liq semiotik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Kadrda ekranga yozib chiqadigan ドン, キラッ, シーン kabi yozuvlar ko'pincha subtitrdagi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ovoz effektlari va kadr kompozitsiyasi hisobiga qoplab yuboriladi. Ayrim hollarda esa “(gumburlash ovozi)”, “(jimjitlik)”, “(yaltirash)” kabi skobkali izohlar bilan beriladi. Bu yerda lingvistik birliklar multimodal tizimning faqat bir qismini tashkil etgani uchun tarjima strategiyasi ham murakkabroq bo'ladi [7, 63].

Yapon onomatopeyalarining o'zbek tiliga o'tishi jarayonida

kuzatiladigan ushbu transformatsiyalarni umumlashtirar ekanmiz, bir tomondan, semantik maydonning qisqarishi, ikkinchi tomondan, uslubiy va lingvokulturologik ma'lumotning yo'qolishi hamda uchinchi tomondan, matn ritmining o'zgarishi kabi uchta asosiy yo'qotish turi haqida gapirish mumkin. Shu bois mazkur birliklarni o'rgatish va tarjima qilishda ularni faqat lug'aviy ma'no darajasida emas, balki kognitiv-madaniy model sifatida talqin qilish, kontrastiv tahlilni yo'lga qo'yish hamda ona tilidagi ekvivalent va o'xshashlarni tizimli ravishda qiyoslash zarur.

Xulosa. Yapon onomatopeyalarini o'zbek tiliga tarjima qilish masalasi tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik kesishgan nuqtada joylashgan murakkab muammo hisoblanadi. Yapon tilidagi mimetik birliklar, ayniqsa gitaigo va gijougo guruhlar, nafaqat tovush yoki harakatni, balki yapon til jamoasining estetik idealini, tabiat va inson ruhiyati haqidagi tasavvurlarini ham kodlaydi. O'zbek tiliga tarjima jarayonida ushbu lingvokulturologik qatlamni to'liq saqlab qolish imkonini bo'lmasa-da, deskriptiv tarjima, funksional almashtirish va kompensatsiya strategiyalaridan ongli va tizimli foydalanish yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar yapon onomatopeyalarining konkret janrlar – bolalar adabiyoti, reklama matnlari, internet diskursi, ilmiy-ommabop matnlar tilida qo'llanish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, yaponcha-o'zbekcha elektron korpuslar asosida diskursiv tahlilni yo'lga qo'yishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

REFERENCES

- [1]-田守育啓, Schourup L. 日本語オノマトペの研究. – 東京: くろしお出版, 1999.
- [2]-日本国語大辞典. 第2版. – 東京: 小学館, 2000.
- [3]-井上史雄. 日本語の音象徴. – 東京: 講談社, 2008.
- [4]-Akita K. Sound-Symbolic Words in Japanese. – Amsterdam: John Benjamins, 2012.
- [5]-Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
- [6]-Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. –

London: Routledge, 1992.

[7]-Venuti L. The Translator's Invisibility. – London: Routledge, 1995.

[8]-Саломов F. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 1983.

[9]-Хамидов X. Таржимада лисоний бўёқдорлик муаммолари. – Тошкент, 2010.